



SOCIAL WORK IN UZBEKISTAN: FUNDAMENTALS OF NATIONAL SOCIAL POLICY

Jakhongir Ibragimov

Lecturer, researcher

Kattakurgan branch of Samarkand State University

Samarkand, Uzbekistan

E-mail: jahongir.5066@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: state, society, social policy, social, public cooperation, prosperous state, justice, traditions of statehood, New Uzbekistan, socially unprotected categories, national social policy.

Received: 14.04.25

Accepted: 16.04.25

Published: 18.04.25

Abstract: The historical roots and features of the national social policy, the customs and traditions of statehood, practiced by our people for thousands of years, forms of social assistance, as well as social policy implemented in modern Uzbekistan and real information about programs, projects, reforms in the direction has been collected.

O'ZBEKISTONDA IJTIMOIIY ISH: MILLIY IJTIMOIIY SIYOSAT ASOSLARI

Jahongir Ibragimov

o'qituvchi, tadqiqotchi

Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali

Samarqand, O'zbekiston

E-mail: jahongir.5066@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Davlat, jamiyat, ijtimoiy siyosat, ijtimoiy, ijtimoiy hamkorlik, farovon davlat, adolat, davlatchilik an'analari, Yangi O'zbekiston, ijtimoiy zaif toifalar, milliy ijtimoiy siyosat.

Annotatsiya: Milliy ijtimoiy siyosatning tarixiy idizlari va o'ziga xos jihatlari, xalqimiz tomonidan ming yillar davomida amal qilib kelingan urf-odatlar va davlatchilik an'analari, ijtimoiy yordam ko'rinishlari, shuningdek, zamonaviy O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosat va shu yo'nalishdagi dasturlar, loyihalar, islohotlar haqida ma'lumotlar jamlangan.

СОЦИАЛЬНАЯ РАБОТА В УЗБЕКИСТАНЕ: ОСНОВЫ НАЦИОНАЛЬНОЙ СОЦИАЛЬНОЙ ПОЛИТИКИ

Джахонгир Ибрагимов

преподаватель, исследователь

Каттакурганский филиал Самаркандского государственного университета

Самарканд, Узбекистан

E-mail: jahongir.5066@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: государство, общество, социальная политика, социальное, общественное сотрудничество, процветающее государство, справедливость, традиции государственности, Новый Узбекистан, социально незащищенные категории, национальная социальная политика.	Аннотация: Исторические корни и особенности национальной социальной политики, обычаи и традиции государственности, практикуемые нашим народом на протяжении тысячелетий, формы социальной помощи, а также социальная политика, реализуемая в современном Узбекистане и настоящая Информация о программах, проектах, реформах в направлении собрано.
---	--

KIRISH

Ijtimoiy ishning milliy nazariy-metodologik ildizlariga nazar solsak, o'tgan barcha davrlarda jamiyat tafakkur tarzining "shaxs va jamiyat, jamiyat va shaxs, davlat-jamiyat-shaxs" munosabatlarida o'zga shaxslar bilan munosabatlarda o'zaro qo'llab-quvvatlov, yordam, hamkorlik va ijtimoiy muammolarni bartaraf etishda hamkorlik g'oyalari ustivor bo'lib kelganligini ko'rishimiz mumkin.

Xususan, e'tiqod, falsafa va dunyoviy fanlarning ijtimoiyot borasidagi intilishlari, xulosalari, undovlari har doim barkamol, mukammal jamiyat va davlat tuzishga harakat qilgan va bu borada ijtimoiy munosabatlar subyektlari o'rtasidagi aloqalarni ijobiylashtirish yo'llari qidirilgan.

Ijtimoiy siyosat tushunchasi davlat va jamiyatning hamkorligini, o'zaro kelishuvini anglatadi. Davlat tizimining paydo bo'lishi tarixiga nazar solsak, insonlar hammani qiynayotgan muammolarni, ammo hal etishda turli manfaatlar to'qnashuvi tufayli xolis nuqtani topishda qiynalganliklari sabab o'z oralaridan hammaga birdek adolat bilan munosabatda bo'lishiga ishonilgan kishilarni yetakchilikka, hakamlikka saylashlaridan va ular tomonidan tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirish uchun tizimlashtirilgan boshqaruv organlari tashkil etilishi hamda markazlashtirilishidan boshlangan. Keyinchalik davlatning zimmasiga yuklatilgan dastlabki vazifalar chetga surila boshlangan va turli qirollik, xonlik kabi boshqaruv tuzilmalari faoliyat yuritgan. Orada bir necha asrlar davomida davlat xalq manfaatlariga emas, alohida guruhlarga xizmat qilib, ularning hokimiyatini mustahkamlashga xizmat qilib keldi.

So'nggi asrda ommaning ilg'or vakillari sayi harakatlari tufayli xalqning ijtimoiy-siyosiy bilimlari ortdi va aslida davlatning vazifalari nimadan iborat ekanligi haqida ommaviy ijtimoiy fikr-tafakkur shakllandi (ayrim ilg'or jamiyatlarda). Davlat turli shakldagi tadbirlar bilan aholining ijtimoiy muammolarini bartaraf qilishi, ehtimoliy muammolardan muhofaza qilishi, bu tadbirlarni tizimli va davomli amalga oshirishi lozim.

ASOSIY QISM

Rasmiy manbalarda shunday tartibda ish yurituvchi tizim dastlab XIX asr oxirida AQShda yuzaga kelgani aytiladi. Buning sababi bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida jamiyatda turli ko'rinishdagi muammolarning yuzaga kela boshlagani, xususan, ishsizlik, kambag'allik avj olib ketgani, jamiyatning keskin tabaqalanib ketishining oldini olish, bozor iqtisodiyoti tuzumining salbiy oqibatlarini yumshatish va umumjamiyat miqyosidagi ijtimoiy-iqtisodiy infrastrukturani sog'lom tarzda saqlashga urinish edi. Shuning uchun "aholini himoya qilish" g'oyasi ostida chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Ushbu holatlardan kelib chiqqan holda ijtimoiy muhofaza tushunchasi ijtimoiyotchi olimlar tomonidan G'arbga oid, dastlab G'arbda paydo bo'ldi deb, "yozildi".

Sharqda, xususan, bizning o'lkamizda ijtimoiy muhofazaning dastlabki ko'rinishlari qachon paydo bo'lganligi haqida aniq vaqtga ishora qiluvchi ma'lumotlar, ya'ni "shu vaqtdan boshlab davlat ijtimoiy siyosat usuli va vositasida aholini muhofaza qilishni boshladi" kabi ma'lumot yozilmagan. Shunki, sharqda bu qandaydir bir tuzum yoki tizimga bog'lanmagan, jamiyat faqatgina o'ta og'ir ijtimoiy muammolarni hal etish uchungina davlatga murojaat qilgan, G'arbda odatiy tarzda davlat zimmasiga yuklatiluvchi alohida shaxslarning muammolari sharqda jamoatchilik yordami – o'zaro qo'llab-quvvatlashi bilan hal etib kelingan. Diyormizda mavjud bo'lib kelgan Zardushtiylik(mil.avv. IX – mil. VIII asrlar) va Islom(milodiy VIII asrdan boshlab) dinlari, ulug' donishmandlar ilmiy-nazariy merosi, jamiyat va davlat arboblarning xatti-harakatlari tufayli davlat zimmasiga faqatgina global darajadagi ijtimoiy muammolarni hal etish yuklab kelingan.

O'sha vaqtdagi o'zaro ijtimoiy yordamlar ma'lum bir fan yoki professional faoliyat sifatida rivojlanmagan bo'lsa-da, lekin bir-biriga insoniylik, mehr-muruvvat, hamdardlik, birodarlik singari qadriyatlar asosida yuzaga kelgan. Bu ma'lumotlar o'z vaqtdagi barcha voqealarni mujassamlashtirgan kitob Avestoda, Muqaddas Hadislar to'plamlarida, allomalarning asarlarida, yodnoma, solnoma va tarix kitoblarida keltirilgan.

Darhaqiqat, ijtimoiy yordam ko'rsatish bu xalqimizning qon-qoniga singib ketgan qo'ni qo'shnichilik, qarindoshlar o'rtasidagi o'zaro yordamlar ko'rinishida namoyon bo'ladigan qadriyat sifatida shakllangan. Bunga misol qilib to'y-u marakalarda qo'shnilarning yig'ilishib moddiy yohud nomoddiy yordamlar ko'satishligi va bu yordamlardan hech qanday naf kutmaganliklarini keltirishimiz mumkin. Shuningdek, hasharlar ko'rinishidagi yoki savob uchun

kambag'al oilalarga oziq-ovqat, kiyim-kechak, pul ko'rinishida yordamlar berishganligi ham ayni haqiqatdir. Bu misollar orqali shunga amin bo'lamizki, xalqimiz azal-azaldan xayriya ko'rinishidagi beg'araz yordamlarni bir-birlariga ko'rsatib kelishganligi sababli ham davlat ijtimoiy siyosiy tadbirlariga yoki "professional ijtimoiy ishch" deb atalmish alohida faoliyat turining shakllanishiga ehtiyoj sezilmagan.

Mehr-muruvvat, o'zaro yordam ko'rsatish hadislarimizda ham aks etganligi yuqoridagi fikrlarimizga yorqin dalil bo'la oladi. Xususan, "Odamlarga yaxshilik qilish va qarindoshlar bilan yaqin aloqada bo'lib, hol-ahvol so'rashib turish-bu savobi tez tegadigan xayrli ishlardandir. Zulm va qarindoshlardan uzilib ketishlik esa jazosi tez bilinadigan yomon ishlardandir." Aynan ushbu hadisda ham bir-biriga mehrli bo'lishlik, yordam ko'rsatishlik, xushmuomalali bo'lishlik g'oyalari mujassamlashgan. Bundan tashqari ***"Mo'minlar bir-birlarining og'riqlariga sherik bo'lishlari kerak. Bu bosh og'riganda bamisoli butun tana og'rigani kabidir."*** Bu hadisda insonlar bir-birlarining yaxshi-yomon kunlarida birga bo'lishliklari, bir-birlariga hamdard bo'lishliklari tog'risidadir.

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida aynan o'sha davrdagi ijtimoiy siyosatning ko'rinishlarini aks ettirilgan. Xususan, shu davrdagi podshoh o'z davlatini insonparvarlik, bag'rikenglik, adolat tamoyillari asosida boshqarganligini podshohning quyidagi so'zlari orqali bilib olamiz. ***"Men har bir ishni adolat yuzasidan hal qilaman, beg va qul kishilarni ajratib o'tirmayman. Da'vo-tuhmat qiluvchi kishining ishini uzaytirib cho'zmayan, o'z vaqtida odilona hal qilaman."*** Bu fikrlar orqali o'sha vaqtlarda hukmronlik qilgan podshohlar ham davlat boshqaruvida aholi farovonligini ta'minlashni birinchi o'ringa qo'yishganligini guvohi bo'lamiz. Xususan, har bir fuqaroning turmush sharoitini o'rganishni va ularning ehtiyojlarini qondirishni birlamchi vazifa qilib belgilaganligi, ayni bugungi kundagi ijtimoiy siyosat bilan nechog'lik o'xshash ekanligidan dalolat beradi. Bundan tashqari har bir fuqaroning huquqlari adolat prinsiplariga muvofiq ado etilishi xususan, boy va kambag'alni bir biridan ajratmagan holda ularning qay biri haqli bo'lsa shuni yoqlaganligi ham aynan aholining podshohdan va davlat siyosatidan rozi bo'lib hamda farovon yashashligi kafolatidir.

Abu Nasr Farobiyning "Fozil odamlar shahri" asari orqali haqiqiy hukmdor qanday bo'lishi kerakligi, davlat boshqaruvida asosan nimalarga e'tibor berishligi yoritib berilgan. Sharqda ikkinchi ustoz deb, tan olingan mutafakkir o'zining ijtimoiy-falsafiy ta'limotini yaratgan va asarida fozil va johil shaharlar timsolida ijtimoiy adolat tamoyillarini ko'rsatib bergan. Xususan, fozil shahar hokimi u murosali, bilimli, zehnli, o'z fikrini ifoda eta oladigan, yolg'onni kechirmaydigan, xushfe'l insonlarni yoqtiradigan adolatli, insonlarni ehtiyojlarini qondira oladigan, inson bo'lishi lozim. Bu shaharda faqat tinchlik, osoyishtalik va adolat, insonparvarlik

hukmron bo'lishi shart. Bu shaharning asosiy maqsadi aholining farovon yashashini ta'minlashdir. Bu shaharda barcha baxtli va faravon yashashadi.

XI asrda yashagan Kaykovus podshoh adolatini quyoshga tenglashtiradi. Unga ko'ra ***“Quyosh hammaga, hamma yerga teng, barobar nur sochgani kabi, podshoh ham hammaga barobar adolat nurini sochmog'i lozim.”***

Podshoh odil, adolatli bo'lmog'i shart. Agar u zulmli bo'lsa unda bu xalq ham, davlat ham vayron bo'lishi hech gap emas. Odil podshoh boshqargan xalq esa gullab yashnaydi, chuqur ildiz otadi. Negaki bu davlatning xalqi farovon va osoyishta, davlat ijtimoiy siyosatidan qoniqib hayot kechiradi.

Keyingi asrlarga taalluqli milliy ijtimoiy siyosat borasidagi ma'lumotlarni “Temur Tuzuklari” asaridan bilib olamiz. Sohibqiron o'z siyosatining asosiy tamoyillarini quyidagicha bayon qiladi: ***“Avvalo, har yerda va har vaqt islom dinini quvvatladim. O'n ikki tabaqa va toifadagi kishilar bilan mamlakatlarni zabt etdim, ularni idora qildim. Maslahat, kengash, tadbirkorlik, faollik va xushyorlik-ehtiyotkorlik biln g'anim qo'shinlarini yengib, mamlakatlarni o'zimga bo'ysundirdim. Davlat ishlarini saltanat qonun-qoidalariga asoslangan holda boshqardim. Har bir fuqarolarning arzlarini va muammolarini o'rgandim va adolatli xulosa qilishga harakat qildim. Har bir fuqaroning farovon yashashini ta'minlashni asosiy vazifalar qatoriga kiritdim.”***

Amir Temur davlat boshqaruvida adolat tarozisiga alohida ahamiyat qaratgan. Har bir masala yuzasidan yetarli ma'lumotlar asosida adolatli hukmlar chiqargan. ***“Amr etdimki, raiyatdan mol-xiroj yig'ishda ularni og'ir ahvolga solishdan yoki mamlakatni qashshoqlikka tushirib qo'yishdan saqlanish kerak... har bir mamlakat fath etilgach, turli ko'ngilsiz hodisalardan aholi omonlikda bo'lsin, uning hosil va daromadlarini hisobga olib ish tutsinlar.”*** Bundan tashqari aholining ehtiyojlarini qonirish borasida turli islohotlar ishlab chiqqan. Xususan, sardobalar, bog'lar, masjid, madrasalar hamda bir qancha boshqa tarixiy obidalar qurdirgan. Bu binolarning barchasi xalq ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan.

Amir Temur davrida ham davlatning ijtimoiy siyosatida jamiyatni qiynayotgan global darajadagi muammolarga qaratilgan faoliyatni ko'rishimiz mumkin.

Davlat ijtimoiy siyosati tog'risidagi ma'lumotlarni Alisher Navoiy faoliyati va asarlarida kuzatamiz. “Hayrat ul-abror”da - ***adolatli, xalqning farovon yashashini ta'minlay oladigan sahiy podshohgina o'z davlatini tinch va mustahkam barpo eta olishligi, davlatning tayanchi bu xalq ekanligi to'g'risida ko'rsatmalar bayon qilingan. Asarda shoh G'oziyning podshoh bo'lgandan so'ng “Xalqqa u adolat eshigini ochib qo'ydi. Imoratlar qurib, vayronalarni tuzatdi, zulmni adolat yo'li bilan bartaraf etdi. Bid'at va fisq-fujur ahllari yo'qolib, shariat adolatining qo'lini kuchaytirdi.”*** Bu misralar orqali shu davrdagi hukmdor Husayin Boyqaro faoliyatiga baho va

yoʻnalish berish orqali davlat ijtimoiy siyosatini asl yoʻnalishda ushlab turishga harakatni koʻrishimiz mumkin.

Bu davrda yuqori martabali kishilardan toki kambagʻal kishilargacha jamiyatni yalpi qamrab olgan kuchli ijtimoiy himoya ostida yashaganlar; xalqning toʻqligi davlat farovonligiga va uning kuch-qudratli boʻlishiga katta taʻsir koʻrsatgan; kuchli ijtimoiy himoya kuchli fuqarolik jamiyati asoslarini yaratishda muhim rol oʻynagan.

Mustaqillikda erishganimizdan soʻng birinchi prezidentimiz Islom Karimov demokratik tamoyillarni taraqqiyotning birinchi boʻgʻini sifatida hisobga olgan holda, eng avvalo xalqning turmush tarzi, muammolarini oʻrganib chiqib, barqarorlashtirishni birlamchi vazifa sifatida belgilab oldi. Yaʼni davlat ijtimoiy siyosatiga oid strategiyalarni, maqsadlarni ishlab chiqa boshladi.

Avvalo, ijtimoiy siyosat birikmasidagi har bir soʻzning maʼnosiga toʻxtalib oʻtsak, shundagina ushbu masalaga atroflicha xulosa qila olamiz. ***“Ijtimoiy” termini arabcha soʻz boʻlib, hamjihatlik, hamkorlik degan maʼnolarni anglatadi.***

Yaʼni, davlat va aholi oʻrtasidagi oʻzaro hamkorlik qilish orqali olib boriladigan jarayonlarni tushunishimiz mumkin. Xususan, maʼlum bir vaziyat yuzaga keldi, ushbu vaziyat jiddiy tus olib ketmasligi uchun nafaqat davlat, balki aholi ham oʻz tashabbuslarini koʻrsatishlari lozim. Masalan, oʻsmirlar oʻrtasida deviantlik yuzaga kela boshladi. Bu holatni tugatish va keng yoyilishi oldini olish maqsadida nafaqat davlat tashkilotlari, balki mahalladagi barcha fuqarolar mazkur masala boʻyicha hamkorlikda faoliyat koʻrsatishlari kerak. Demak, ijtimoiy degani maʼlum bir holat yohud muammo boʻyicha davlat va fuqarolarning hamkorligi tushuniladi.

“Ijtimoiy siyosat”- davlat siyosatining muhim tarkibiy qismi, u ijtimoiy sohadagi munosabatlarni tartibga solishga, inson omilini toʻla namayon qilishga qaratilganligida mujassamlashadi.

Ijtimoiy siyosatni boshqaruvchi guruh tomonidan davlat va jamiyat hamkorligi asosida oʻz oldiga qoʻygan maqsadlariga erishish yoʻlidagi vazifalar majmui sifatida ham tushunishimiz mumkin. Har bir jamiyat oʻz davlatini barpo etishda eng avvalo oʻz strategik rejasini tuzib oladi, hamda bu reja asosida oʻz islohotlarini amalga oshiradi.

Xususan, birinchi prezidentimizning beshta muhim bosqichni oʻz ichiga olgan islohoti ahamiyatlidir. Ushbu beshta bosqichning toʻrtinchisi kuchli ijtimoiy siyosat yuritishga bagʻishlangan. Chunki yuqorida keltirilgan tajribalardan aminmizki, demak har bir davlat eng avvalo, oʻz ichki farovonligini, yaʼni aholisining barcha muammolarini hal etishi, bekamu-koʻst hayot kechirishini taʼminlashi lozim. Shuning uchun ham mustaqilligimizning dastlabki yillarida amalga oshirilishi kerak boʻlgan ishlar doirasiga ijtimoiy soha ham kiritilgan.

Davlatda olib borilayotgan siyosat qanchalik murosalliligiga ko'ra, o'sha davlatda tinchlik-totuvlik, ahillik, hamjihatlik hukmron bo'ladi. Ijtimoiy siyosat olib borish bu davlatdagi ichki muammolarni bartaraf etish bilan ifodalanadi. Xususan aholi o'rtasida bir-biriga nisbatan konfliktlarning yuzaga kelishi, kambag'allik, ishsizlik kabi bir qancha muammolarning yuzaga kelishi ijtimoiy siyosatga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bundan tashqari ko'p bolali oilalarga, boquvchisini yo'qotganlarga, yohud yolg'iz yashovchi ayollarga, keksalarga, ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarga ham yordam berish davlat zimmasiga yuklangan.

Bugungi kunda olib borilayotgan ijtimoiy siyosat ham muhim ahamiyatga ega. Xususan, prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan yettita tamoyillarni o'z ichiga olgan "Harakatlar strategiyasi" muhim ahamiyatga ega. Chunki bu strategiya orqali 2017-2021-yillar mobaynida amalga oshirilishi kerak bo'lgan barcha ishlar belgilab qo'yildi. Hamda bu maqsadlarning juda ko'piga erishdik deya olamiz. Chunki jamiyat hayotida belgilangan vazifalar amalga oshirilgandan so'ng yuqori natijalarga erishildi. Xususan, ijtimoiy sohaga oid yangi dasturlar joriy qilindi. Ular sirasiga keksalarni, nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqildi.

Bundan tashqari 2022-2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da ham eng muhim vazifalar belgilab olindi. Ulardan ijtimoiy sohani rivojlantirishga qaratilgan to'rtinchi tamoyili muhim ahamiyatga ega. Xususan, bu bosqichda ijtimoiy ehtiyojmand toifalarni qo'llab-quvvatlash, hamda ijtimoiy soha vakillarini keng jamoatchilikda nufuzini ko'tarishga qaratilgan. Ijtimoiy ehtiyojmand toifalarni qo'llab-quvvatlash borasidagi amalga oshirilishi kerak bo'lgan ishlar xususiga "Temir daftar", "Ayollar daftari", "Yoshlar daftar"larini joriy etish belgilab olingan.

Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilayotgan chora-tadbirlar xalqimizning turmush-sharoitini yaxshilash, farovonligini ta'minlashga qaratilgan. Xususan, Prezidentimiz Sh. Mirziyoyevning quyidagi da'vatlari har bir shaxsning qalbida o'zgacha bir hayajonni uyg'otadi. "Biz xalqimiz orzu qilayotgan, har bir shaxs baxtli yashaydigan farovon davlat barpo etmoqdamiz. Bu yo'lda barchamiz birga bo'lishimiz kerak". Ushbu fikrlarning tub mag'zida hamkorlikni, yakdilikni ta'minlash ko'zlangan. Shu asosda olib borilyotgan islohotlar aholining har bir qatlamini faolligini oshirish, davlat boshqaruvida ishtirokini ta'minlashni ko'zda tutadi.

Prezidentimiz joriy etgan "Har bir nuroniy besh nafar yoshga murabbiy" tamoyili nuroniyalarimizning faolligini oshirish hamda yosh avlodni barkamol tarbiyalash borasidagi munosib o'rinlarini qo'shishlariga, hamda yosh avlod ham yoshi ulug' nuroniyalarimizning o'gitlarini eshitgan holda yetuk voyaga yetishlariga asoslangan.

"Bir ziyoli bir mahallaga ma'naviy homiy" tamoyili ham aynan fuqarolarning siyosiy ongini shakllantirishga, davlatimizda olib borilayotgan islohotlarning tub mag'zini aholiga yetkazishga

qaratilgan. Prezidentimiz olib borayotgan ijtimoiy siyosatning tub magʻzida aholining ijtimoiy zaif toifalarini himoya qilish, ularni qoʻllab-quvvatlash joy olgan. Shuning uchun ham mamlakatda ijtimoiy sohani rivojlantirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Bu orqali jamiyatdagi oʻz yechimini topmayotgan muammolarning sabablarini oʻrganish va ularning yechimlarini topish lozim.

“Yangi Oʻzbekistonni barpo etishning asosiy sharti “Har bir fuqaro boy boʻlsa, davlat ham boy boʻladi, har bir oila faravon boʻlsa, mamlakat ham faravon boʻladi”, degan tamoyilni amalga oshirishdan iborat. Shu bois, yurtimizni halol mehnat qilib, muvaffaqiyatga erishadigan, tadbirkorlik orqali oʻzi va oilasi farovonligini taʼminlaydigan, vatanimiz va xalqimizga sidqidildan xizmat qilishni istaydigan barcha insonlar uchun keng imkoniyatlar mamlakatiga aylantirishimiz zarur.”

Bu borada Prezidentimiz tomonidan ijtimoiy zaif toifalarga yordam koʻrsatish dasturlari, loyihalari, islohotlari, amalga oshirilmoqda. Xususan, “Sahovat” va “Muruvvat” uylari orqali yolgʻiz keksalarning ehtiyojlarini qondirish va ularning faravon yashashlarini taʼminlash bosh maqsad qilib belgilangan. Shu bilan birgalikda reabilitatsiya markazlari orqali nogironligi boʻlgan, xulqida salbiy oʻzgarishlar kuzatiladigan yoshlarni va muddatli jazo oʻtash muassasalaridan chiqqan shaxslarni moslashtirish choralari ham koʻrilmoqda. Hamda koʻp bolali oilalarga, kam taʼminlangan oilalarga, yolgʻiz onalarga, urush qatnashchilariga ham davlat tomonidan yordamlar amalga oshirilmoqda. Bu islohotlarning barchasi Oʻzbekistonda amalga oshirilayotgan milliy ijtimoiy siyosatning namunalari.

Bugungi kunda biz ham davlatimizda oʻz umrini yashab boʻlgan eski qarashlardan chekinib, yangi davrni barpo etishni, shu bilan birga yangi voqealik boʻy koʻrsatishini anglab yetdik va guvohi boʻlmoqdamiz. Shu nuqtai nazardan qaraganda, Prezidentimiz aytganlaridek, —Jamiyatimizning yangi qiyofasi tushunchasi qotib qolgan voqelik yoki oʻzgarmas aksiomani anglatmaydi. Biz uchun endi yangi davr eshiklari ochildi. Ushbu eshikdan qanday kirib borishimiz albatta oʻz qoʻlimizda.

XULOSA

Bugungi kunda olib borilayotgan davlat ijtimoiy siyosati eng dolzarb masalalarga alohida ahamiyat berilmoqda. Xususan, shu bugungacha ahamiyat berilmayotgan ijtimoiy soha boʻyicha yangi tamoyillar ishlab chiqila boshlandi. Xususan, Prezidentimiz 2022-2026-yillarga oid davlat dasturiga ijtimoiy sohani rivojlantirishni ham kiritganligi yuqoridagi fikrimizning yorqin dalilidir. Aytish mumkinki, bugungi demokratik islohotlar davrida jamiyat va uning aʼzolarining roli muhim hisoblanadi. Chunki har qanday davlatni insonlar va jamoalar tashkil qiladi. Ularning qay ahvolda ekanligi esa mana shu mamlakatni baholab beradi. Jamiyatdagi ijtimoiy axloqiy munosabatlarni tartibga solish, yosh avlodni kamolga yetkazishda u yashayotgan jamiyatdagi muhit, hayotiy

tajriba, ta'lim-tarbiyaning ta'siri to'laqonli mavjud hisoblanadi. Ijtimoiy axloq jamiyat ichida birgalikda yaxshi yashash uchun zarurdir. Shunday ekan, ijtimoiy axloq shaxslarning har bir harakatning bizni o'rab turgan narsalarga ta'sir qiladigan oqibatlarini borligini anglash qobiliyatiga bog'liq. Buni anglab yetgach, inson nafaqat o'zi haqida, balki boshqalarni ham o'ylab harakat qiladi. Buyuk ajdodlarimizning betakror va noyob ilmiy- ma'naviy merosi biz uchun doimiy harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi kerak. Bu o'lmas meros hamisha yonimizda bo'lib, bizga doimo kuch-quvvat va ilhom bag'ishlashi lozim. Avvalambor, milliy ta'lim tizimini ana shunday ruh bilan sug'orishimiz kerak. Buning uchun olim va mutaxassislarimiz, hurmatli ulamolarimiz bu ma'naviy xazinani bugungi avlodlarga sodda va tushunarli, jozibali shakllarda yetkazib berishlari zarur. Yurtimizda olib borilayotgan islohotlarning tub mag'zida tarixan shakllanib kelgan milliy ijtimoiy siyosatning an'analari yotganligining guvohimiz. Zero, har bir davrning o'z siyosati va dasturlari mavjud va bu dasturlar asrdan asrga o'tib sayqallangan bo'lsada, ammo o'zining mazmun-mohiyatini yo'qotgan emas.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sh.Mirziyoyev Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O'zbekiston” nashriyoti, 2021. - 464 bet.
2. Sh.Mirziyoyev Xalqimiz roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. Toshkent: “O'zbekiston”, 2018.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 29.12.2020-yil // <https://president.uz/uz/lists/view/4057> (Murojaat sanasi 31.12.2020 yil);
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi - <https://lex.uz/docs/-20596;>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli “2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha” farmoni. <https://lex.uz/docs/-3107036;>
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022-yildagi PF-60-son “2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/-58410633;>
7. Ganiyeva Ma'rifat Xabibovna, Kayumov Qaxramon Nozimjonovich, Sherov Ma'ruf Boltayevich. Ijtimoiy ishga kirish. Darslik – Toshkent: VNESHVESTPROM nashriyoti. 2020. – 276 bet.
8. Amir Temur. Temur tuzuklari. Toshkent G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi 1991.
9. Abu Nasr Farobiy “Fozil odamlar shahri” Toshkent Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti.

10. Yusuf Xos Hojib “Qutadg‘u bilig” (saodatga eltuvchi bilim) “Fan” nashriyoti. Toshkent – 1971y.
11. Kaykovus. “Qobusoma”. “Istiqlol” noshirlik markazi.
12. G‘iyosiddin Xondamir. Makorim ul-axloq. G‘afur g‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent-2015.
13. Alisher Navoiy. Xamsa. “Hayrat ul-abror”;
14. O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo‘mitasi - <https://stat.uz/uz/>.
15. O‘zbekcha Online kutubxona. [https://www.uforum.uz](https://www.uforum.uz;);
16. Ziyouz.com kutubxonasi. <https://www.ziyouz.com>.